TALABALATRDA OILAVIY MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xudoynazarov Sherzod Axmad o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
e-mail: sherzodxudoynazarov1994@gmail.com

Annotatsiya. Oila va jamiyat bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tushuncha, jamiyatning bir bo‘lagi sifatida vujudga keladi. Jamiyat ham oilalardan tashkil topadi, talaba yoshlar oila bag‘ridan oliygoh talabasi sifatida kelar ekan jamiyatning eng muhum a’zosiga aylanadi, talabalarda oila va unga bo‘lgan muhabbat hissini shakillantirish oliy maqsatimizdir.

Kalit so‘zlar. Oila, talaba, ijtimoiy ro‘l, qadriyat.

Annotation. The concept of family and society is interdependent and arises as a part of society. The society is also made up of families, students become the most important members of the society as they come from the family as a university student, forming a feeling of love for the family in students is our highest goal.

Key words. Family, student, social role, value.

Kirish. Oila va uning tashkil topishi, taraqqiy etishi va oiladagi vazifalarni bajarish jarayonlari har bir xalqda alohida, o‘ziga xos xususiyatga egadir. Har bir xalq dunyoda o‘zining

o‘rniga egadir, inson-insonga, xalqlar-xalqlarga o‘xshamaydi, bir-birini aynan takrorlamaydi. Har bir millat va elatning o‘zigagina xos bo‘lgan jihatlari mavjud bo‘lib, har bir xalq va ellatning o‘z ma’naviyati, milliy qadriyatlari va boy tarixi mavjuddir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oila qadim zamondan sharq va g‘arb mutafakkirlari tomonidan o‘rganilgan eng dolzarb mavzulardan biri sifatida qarab kelingan, xususan Kaykovus Unsurulmaoni - 63 yoshida o‘g‘liga atab “QOBUSNOMA” yozib, unda o‘zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Kitobdagi asosiy g‘oya - yoshlarni ota-onani hurmat qilishga, e’zozlashga chaqirishdir Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarahim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, hamda hozirgi davr O‘zbekiston olimlari M.G. Davletshin, G‘.B. Shoumarov, V.M. Karimova, E.G‘.G‘oziyev, Sh.R.Baratov, M.Mamatov, B.M. Umarov, X.U.Abdusamatov oila munosabatidagi muammoli masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq etishda katta xizmatlar qilmoqda.

Oila qurish talabidan kelib chiqib, amalga oshirish lozimligi yuzasidan soha vakillari J.Usarov, N.Eshnaev, T.Maratovlar ushubu masalada to‘xtalib: “Yurtimizda oilani mustahkamlash, oila bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, ayniqsa, yosh oilalarni moddiy va manaviy qo‘llab quvatlash borasida keng ko‘lamli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etilib, ijtimioiy-siyosiy dasturlar ishlab chiqilmoqda. Biroq oilaviy ajrimlar soni ortib borayotgani bu yo‘nalishdagi ishlarda yangicha yondoshuv, yangicha qarashlarni talab etmoqda va yangi ilmiy tadqiq etishni talab etadi”- degan ilmiy qarashni ilgari surgan. boshqalarning tadqiqotlarida ham oila muammosi, undagi er-xotin o‘rtasidagi nizoli munosabatlar hamda barcha oilaviy munosabatlar farzand tarbiyasiga qay darajada muhum ekanliligi har bir ota ona uchun sir emas. Aynan ushbu muammoning yechimlarini topish bizning maqolamiz mavzusining dolzarbligini tashkil etadi.

Asosiy qism. Oila va undagi shaxslararo munosabatlar, uning shaxs shakllanishiga ta’sirini o‘z madaniy muhiti sharoitida xorijiy psixolog olimlardan R.Brazington, T.Dumitrashku, F.Galton, U.Toumen, R.Richordson, R.Zayons, G.Xomentauskas va boshqalar ushbu sohani tadqiq qilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan ushbu soha bo‘yicha V.V.Boyko, G.M.Breslav, A.G.Volkov, S.V.Kovalev, V.P.Levkovich, E.I.Pavlovich, V.L.Titarenko, o‘zbek olimlari tomonidan oiladagi er-xotin munosabatlarining turli ijtimoiy-psixologik jihatlari o‘rganilgan. G‘.B. Shoumarov, X.U.Abdusamatov jumladan, Y.A.Yakubov tomonidan o‘zbek oilalaridagi er-xotin munosabatlarining ijtimoiy-psixologik jihatdan o‘rganilgan dastlabki tadqiqotlardan biri bo‘lgan. Muallif o‘zining olib borgan tadqiqot obyekti sifatida nikohlar mustahkamligiga qarab yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan er-xotinlar hamda ajralish arafasida turgan juftliklardan iborat guruhlar tanlab olingan. Ikkala guruhlarda ham er-xotinlarning oiladagi funksiyalarini bajarishlarida bir-birlarini hissiy qo‘llab-quvvatlashlari, oilaviy qadriyatlarga yondashishlari va oilaviy rollarga nisbatan bo‘lgan yo‘l-yo‘riqlari o‘rtasidagi tafovut farqlari borligi ta’kidlangan. Olim o‘zining tadqiqotlaridan kelib chiqib o‘zbek oilalarida farzandlarning borligi va ularning soni nikoh mustahkamligini ta’minlovchi yana bir muhim omillardan biri hisoblanishini qayd etib o‘tgan. Shu bilan birga, an’anaviy, milliy, oilaviy turmush tarzi, yo‘l-yo‘riqlar, yosh er-xotinlar munosabatlariga ota-onalarning aralashuvi, oilada rollar taqsimoti va ularning er-xotin tomonidan idrok qilinishi kabi xususiyatlarni bir tomonlama, salbiy omillar sifatida sanab o‘tgan bo‘lsa, ayollarning mavqeyi, ularning ijtimoiy faolligini ortishini esa ijobiy tomondan baholab o‘tgan. Shuningdek, er-xotinning nikohdan qoniqish darajasi o‘zaro hurmat, o‘zaro tushunish hamda hissiy munosabat bilan bog‘liqligi keltirib o‘tilgan.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, keyingi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda oilaning keng qamrovli turli jihatlari ochilmoqda va o‘z aksini topib kelmoqda. Jumladan, X.U.Abdusamatovning “Nikohdan tashqari munosabatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”

nomli dissertatsiyasida oilalarda nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi “o‘zgani sevib qolish”, “moddiy ehtiyojni qondirish”, “jinsiy aloqaga majburiyat sifatida qarash” hamda “turmush o‘rtog‘idan jinsiy qoniqmaslik” kabi ijtimoiy-psixologik masalalar tadqiq etilgan. Mazkur ishda, nikohdan tashqari munosabatlarni keltirib chiqaruvchi quyidagi sabablarni keltirib o‘tilgan:

- turmush o‘rtog‘i bilan bo‘lgan jinsiy hayotdan qoniqmaslik;
- turmush o‘rtog‘iga nisbatan muhabbat hislari (simpatiya yoki umumiy qarama qarshi jinsga nisbatan bo‘ladigan ijobiy hislar)ning mavjud emasligi;
- ayollarda erkaklarga nisbatan hissiy yaqinlik ustunlik qilishi;
- oilaviy turmush staji bo‘yicha farqlar mavjudligi;
- er-xotinlar orasidagi nizoli vaziyatlar;
- jinsiy savodsizlik;
- psixologik inqirozlar;
- jinsiy munosabatlar to‘g‘risidagi bilim, ko‘nikma va malakalar o‘rtasidagi tafovutlarni mavjudligi;
- turmush o‘rtoqlardan birining uzoq muddat xizmat safarida bo‘lishi;
- ehtiyojlarning mos kelmasligi;
- moddiy va iqtisodiy motiv asosida qurilgan oilalar;
- sovchilik asosida shoshilinch qurilgan oilalar;
- spirtli ichimlik ta’sirida ro‘y beradigan nikohdan tashqari munosabatlar;
- ayollardagi frigidlik;
- boshqa jins vakilini sevib qolishi;
- er-xotinlarda diniy ma’lumotlar deyarli mavjud emasligi;
- egallab turgan lavozimini asrab qolish, biror amal va lavozimga erishish uchun rahbar yoki bevosita bo‘ysinuvchi shaxs yoki ilmiy rahbar bilan jinsiy munosabatga kirishishi;
- erkaklarning ko‘proq oilada o‘zini erkin tutishi va o‘zi xohlagan vaqtda boshqa ayollar bilan jinsiy aloqa qilishi;
- yoshlikdagi muhabbat hissi;
- ayol yoki erkakning biri bepusht bo‘lsa, farzand ko‘rish maqsadida;
- oiladagi nosog‘lom muhit;
- oiladagi surunkali janjallar.

Bunday sabablar shaxslardagi o‘zaro nikohdan tashqari munosabatlar uchun imkoniyat yaratmoqda shu o‘rinda oila qurish uchun jismonan yetilgan va ijtimoiy munosabatlarda faol bo‘lgan talabalarda nikohdan tashqari munosabatlarning shakillanmasligi, oila muqaddas dargoh ekanliligi singdirilishi maqsadli bo‘ladi degan tushunchaga keldik. Talaba yoshlarda oilaviy munosabatlarning shakillanishi 1. Sevgi munosabatlariga asoslansa. 2. Qarama – qarshi jins vakillariga bo‘lgan qiziqish asnosida.

Talabalarda nikohga bo‘lgan ijtimoiy psixologik sabablar.

1. Emotsional tayyorgarlik: Talabalar ko‘pincha hissiy tajriba va o‘zaro munosabatlarni shakllantirish jarayonida. Bu ularga oila qurishda sevgi va his-tuyg‘ularni ifoda etish imkoniyatini beradi.

2. Ijtimoiy tajriba: Talabalar, ijtimoiy muhitda o‘sgan holda, oila qurish modelini ko‘rsatadigan turli xil munosabatlarni ko‘rishadi. Bu ularning oila qurishga bo‘lgan qarashlariga ta’sir qiladi.

3. Ta’lim darajasi: Ta’lim, talabalarning oila qurish haqidagi qarorlariga, mas’uliyat va iqtisodiy imkoniyatlarni qanday baholashlariga ta’sir qiladi.

4. Himoya mexanizmlari: Talabalar stress, muvaffaqiyatsizlik yoki o‘zgarishlarga qarshi turish uchun turli xil himoya mexanizmlarini qo‘llaydilar, bu esa oila qurish jarayonida muhim rol o‘ynashi mumkin.

5. O‘zlikni anglash: Talabalar, o‘zlarini anglash jarayonida, oila va munosabatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantiradilar. Ular o‘zlarining qadriyatlari va istaklarini aniqlab, kelajakdagi oila

hayotiga tayyorgarlik ko‘radilar. Bu omillar talabalar oila qurishga tayyorlik darajasini va ularning o‘zaro munosabatlarini belgilovchi asosiy psixologik jihatlardir.

Xulosa va tavsiyalar. Oila qurish yoshidagi talabalarning oila qurishga ijtimoiy- psixologik tayyorgarligi, er-xotin munosabatlarining ijobiy o‘rnatilishida ota-onalar tomonidan moddiy ma’naviy qo‘llab quvvatlash oila mustahkamliligining asosiy omillaridan biri sanaladi. Talaba yoshlarning oilaviy hurmatning shakillanishida oilada ro‘llar taqsimotida vazifalarning aniq bajarilishi ishonch va muhabbatning asosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. OILA PSIXOLOGIYASI “SHARQ” NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT — 2010

2. file:///C:/Users/PRO-LIDER.DESKTOP-O52LPGU/Downloads/

3. https://ijtimoiy.uz/2583/

4. https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23489

5. XUDOYNAZAROV, S. (2024). RIVOJLANAYOTGAN O ‘ZBEKISTONDA GENDER VA OILA. Евразийский журнал академических исследований, 4(3 Part 2), 137-14